

*Rahmonov Ulug'bek Karimovich*

*Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim ijtimoiy-gumanitar fanlar  
kafedrasi dotsenti, O'rta maxsus kasb hunar ta'limi a'lochisi*

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY MUSIQANI TUTGAN O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari orqali bolalarga o'zbek mumtoz musiqa asarlaridan tutgan o'rni, ularni iqtidori, ist'dodi va qobiliyatlarini rivojlanishida milliy musiqa san'atining tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль узбекской классической музыки для детей посредством занятий музыкой в дошкольных образовательных организациях, роль национальной музыки в развитии их таланта, таланта и способностей.

**Annotation.** This article discusses the role of Uzbek classical music for children through music classes in preschool educational organizations, the role of national music in the development of their talent, talent and abilities.

**Kalit so'zi.** Milliy, mumtoz, dunyo, madaniyat, ma'rifat, sivilizatsiya, alloma, falsafa, ne'mat, maqom, samoviy, ilohiy, asr, mantiq, ziyoli.

**Ключевое слово.** Национальный, классический, мир, культура, просвещение, цивилизация, учёный, философия, благословение, статус, небесный, божественный, возраст, логика, интеллектуальный.

**Keyword.** National, classical, world, culture, enlightenment, civilization, scientist, philosophy, blessing, status, heavenly, divine, age, logic, intellectual.

Ona yurtimizda tinch-osuda ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik tufayli ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san'at bilan uzviy bog'liq bo'lgan ma'naviy merosimiz mazmunidagi san'at alohida o'rin tutadi. Milliy musiqa – millat qalbi. Xalqimiz azaldan tinglab kelayotgan tarix ohanglarining biz-gacha yetib kelishi va ularning turlicha uslubda sayqal topishida mumtoz musiqa maqom san'atining o'z o'rni va alohida qimmat bor. Madaniyatimizning barcha rivojlanish davrlarida mumtoz musiqa asarlari xalqimiz qalb qo'ri, ko'ngil davosi sifatida bebaho ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Chunki, mumtoz musiqa asarlari bo'lmish maqom san'ati azal-azaldan o'zbek xalqining nafaqat ma'naviy hayoti, balki kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib kelgan. O'zbek mumtoz musiqa maqom san'ati o'zining jozibadorligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi hamda uning zaminida kuchli falsafay mazmun va bir - biriga o'xshamas, qaytarilmas kuy tizimlariga egaligi bilan jahon xalqlari san'atidan ajralib turadi. O'zbek milliy va mumtoz musiqasining shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'tmishdan Sharq dunyo tamaddunida madaniyat va ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan. Sharq xalqlari va o'zbek zaminidan yetishib chiqqan allomalarning yaratgan asarlari hamda izlanishlarining mahsuli bugun jahon sivilizatsiyasining asosiy poydevori bo'lib kelmoqda. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topib kelgan. O'zbek xalqning milliy musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos hamda mukammal darajada shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa me'rosiga ega. Musiqa ilohiy ne'mat bo'lib, uning isboti qadimiy manbalarda o'z aksini topgan. Musiqa asrlar mobaynida insoniyatning ma'naviy va madaniy qarashlarining rivojlanish natijasida shakllanib, charxlanib, mukammallashib kelgan. Shunday namunalardan biri maqomlardir. Maqom san'ati yuqorida aytilganidek samoviy va ilohiy ne'matdir. Maqomchilik san'ati O'rta asrlardan Sharq xalqlarining musiqa madaniyatida yetakchi o'rinni egallab kelgan. Maqomlar – mumtoz she'riyat va professional darajadagi ijrochilik uslublarining rivoji asosida shakllangan bo'lib, maqomlarning mazmunida ilm bor, ma'naviyat bor, falsafa-mantiq borligini ko'rish mumkin. Maqomlar xonlarga atalgan bo'lib, uni ziyoli va ilmlilar orasida ijro qilishgan va tinglangan. Chunki, maqomni tushinish uchun insonda ma'naviyat, madaniyat, bilim va dunyoqarash keng bo'lishi zarur. Shuning uchun ham maqomlar podshohlar va xonlar saroyida, ilimli va ziyolilar orasida ijro qilingan, shakllangan va rivoj topgan. Darhaqiqat, musiqa

inson hayotining ajralmas bo‘lagidir. Kuy ruhga ta’sir etadi, qo‘shiq va ashula esa aql hamda onga. Inson mungli kuy eshitganida o‘z-o‘zidan tebrana boshlaydi. Sho‘x, o‘ynoqi kuy tinglaganida esa inson vujudiga kuch kiradi, kayfiyati ko‘tariladi. Ashula va qo‘shiq tinglaganda esa kuy bilan birgalikda so‘zning ta’siriga tushib, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Bu esa musiqa san’atining ilohiy ekanligining yorqin misolidir. Davlatimiz tomonidan maqom san’ati va milliy musiqaga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Maqomni rivojlantirish, xalq orasida targ‘ib qilish va o‘rgatish hamda kelajak avlodga yetqazish masalalari qo‘yildi. O‘zbekiston Prezidneti Sh.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Maqom markazi tuzildi va uning negizida maqom ansambli tashkil qilindi. Har bir viloyatda namunali maqom ansambllari tashkil etildi. Musiqa maktablari hamda litseylar uchun maqom markazi tomonidan “Maqom alifbosi” kitobi chiqarildi. Xalqaro maqom festivali o‘tqazila boshlandi. Xalqqa targ‘ib qilish uchun ommaviy-axborot vositalari orqali ko‘rsatuvlar e’firga uzatila boshladi. Bularning barchasi xalqqa milliy boyluk hisoblanmish mumtoz musiqani yetkazishdir.

Xalqning, millatning dunyoqarashini o‘zgartirish, ma’naviyatini oshirish, o‘zligini anglatish bir kun, bir oy yoki bir yilda bo‘ladigan ish emas. Bunga yetarlicha bir qancha muddat va shu vaqt ichida bir necha avlodni milliy urf-odatlar, milliy an’analar asosida yetishtirsak shunda yurtning kelajagi porlog‘ bo‘ladi. Bu ishni bolalikdan boshlash ayni muddaodir. Milliy musiqa va maqomlar targ‘ibini maktabgacha ta’lim va maktablardan boshlash kerak. Mashg‘ulotlarida oz-ozdan tanishtirish va tinglatish kerak. Bolaning yoshligidan milliy ruhini shakllantira olsak, bu kelajakda millatning, yurtning asl farzandlarini yetishtirishga asos bo‘la oladi. Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalari juda katta kuchga ega. Xalq orasida maqomlarni, milliy musiqa namunalari targ‘ib qilish chora tadbirlarini kengaytirish zarur bo‘lmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan milliy musiqa namunalari, xalq sevgan ustoz san’atkorlar va bugungi kunda yetishib chiqayotgan yosh ijrochilarning ijod namunalari, maqomlarni kengroq yorituvchi ko‘rsatuvlarni berib borish orqali xalqning e’tiborini tortish mumkin. Bolalar uchun multfilmlar qiziqarli ko‘rsatuvlar yaratish kerak. Chunki, bolaning yoshligidan to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, o‘zligini tanittirsak bu kelajakda jamiyatning, millatning yutug‘i bo‘ladi.

Ma’lumki, farzandlarimizni milliy ruhda tarbiyalanishi uchun mak-tabgacha ta’lim tashkilotida bolalar turli faoliyat turlari bilan shug‘ul-lanayotgan paytlarida yoki turli o‘yinlar bilan band bo‘lgan vaqtlarda milliy kuylar negizidan iborat bo‘lgan maqom asarlar eshittirishning o‘zi kifoya. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini milliy asarlarga muhabbatini uyg‘otish kerak. Mamlakatimizda ayni paytda vujud-ga kelgan shart-sharoitlar bilim berish mazmuni va uni amalga oshirish jarayonlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirish-larni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, ta’lim tizimini takomillash-tirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tarbiyachilari-ning malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2707-sonli, 2017 yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5198-sonli farmonlari, 2017 yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 3261-sonli qarori, shuningdek Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari hamda “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturini amalda joriy etishni nazarda tutadi. Yoshi ulug‘ san’atsevar insonlardan sozga, milliy musiqaga qanday mehr uyg‘onganligini so‘raganimizda, ular televizor, internet yo‘q paytlarda har bir xonadonda radio bo‘lganligi va undan taralgan milliy ashulalar, maqomlar milliy san’atga oshufta qilib qo‘yganini ta’kidlashadi. Ayni ohanglar og‘ushida tarbiyalangan farzand kelajakda vatanparvar, milliy qadriyatlarini qadriga yetuvchi millat sevar inson bo‘lib yetishadi. Agar yoshi katta odamlar-ning bolalik davrida har xil rok, pop va turli oqimdagi bemaza musiqalar eshittirilganda hozir mamlakatimiz qanday ahvolga tushib qolishini tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Demak, hozirgi kunda farzandlarimizni millatparvar, Vatanga sodiq haqiqiy inson etib tarbiyalashimiz uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida yuqori did bilan

saralangan, milliy musiqiy cholg'ularda ijro etilgan kuylarni eshittirishimiz kerak ekan. Iloji boricha yakka sozlarda ijro etilgan asarlardan tuzilgan musiqalar bo'lsa maqsadga muvofiq. Misol uchun yakka tanburda yoki satoda Turg'un Alimatov, yakka dutorda Abdurahim Hamidov, Malika Ziyoeva, yakka changda Fahriddin Sodiqov, Abdurahmon Xoltojiev, yakka g'ijjakda O'lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Ahmadjon Dadaev, nayda Abduqodir Ismoilov, Abdulahad Abdurashidov, qo'shnayda Ahmadjon Umirzoqov, Yo'ldosh Tojiev, Matrasul Matyakubov, rubobda Ari Boboxonov, Shavkat Mirzaev, Toxir Rajabiy ud sozida Rifatilla Qosimov ijro etilgan kuylar ayni muddaodir. Biz farzandlarimizga asl sozlar, toza milliy ohanglardan bahramand qildirimoqchi bo'lsak, dastlab, aynan yakka sozlardagi ijrolarni eshittirib, keyinchalik maktablarda o'qiydigan o'quvchi bolalarimizga sintez milliy musiqalarni eshittirsak bo'ladi. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotida yakka sozlardagi ijrolarni eshittirish barobarida bu qaysi musiqiy cholg'u ekanligini tushuntirib borish shart. Bu orqali milliy musiqiy asboblarni tovushi, nomlanishi va ko'rinishini tushuntirgan bo'lamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.K.Rahmonov. Yoshlarni ma'naviy ruhda tarbiyalashda baxshichilik san'atining o'rni. Oriental art and culture scientific-methodical journal. ISSN:2181-063x. VOLUME 3 ISSUE 1. March 2022.
2. U.K.Rahmonov. Sozandalar san'atida milliy cholg'ularning o'rni. oriental art and culture scientific-methodical journal. ISSN:2181-063X. VOLUME 3 ISSUE 2. JUNE 2022.
3. U.K.Rahmonov. O'zbek xalq musiqa san'atining XVI-XIX asrlar rivojidadagi ilhombaxsh ohanglari. Science and innovation international scientific journal. ISSN:2181-3337. VOLUME 1, ISSUE 7. 11.11.2022.
4. 13.Soliev A.R. O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganishda an'anaviy ijrochilik san'atini o'rni. Oriental Art and Culture, 4(2), 689-693.2023 yil
5. A.R.Soliev. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada o'zbek xalq qo'shiqlari va qarsak aytimlaridan foydalanish. Oriental Art and Culture, 4(2), 669-676. 2023 yil.
6. U.K.Rahmonov. A.R.Soliev. Sozandalik san'atining barmoqdagi nolalari. innovative developments and research in education, 1(12), 109-119. 2022 yil.
7. A.R.Soliev. The role of national instruments in forming a harmonious generation in preschool educational institutions. Science and Innovation, 1(1), 637-646. 2022 yil.
8. L.Tursunova. Yoshlar musiqa madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini hayotga tadbiq etish. Eurasian journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. ISSN:2181-2888. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7964684> 6 January 2023.P- 23-34.
9. L.Tursunova. Musiqa madaniyati tushunchasi mazmun-mohiyati, tarkibiy va konseptual asoslari. Theoretical aspects the formation of pedagogical sciences. International scientific-online conference 09.09.2023. P-20-23.
10. <https://doi.org/10.5281/Zenodo.8330818>
11. L.Tursunova. Of children through the art of music spiritual, esthetic and moral taste qualities explain the content and find. International journal of advanced research in education, technology and management. Published in VOLUME 2| ISSUE 4| ISSN:2349-0012 2023.19.04. P-259-277. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7899255>.